

MULTIMEDIA VOSITALARINING TIL TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Karimboyeva Shohida Baxtiyor qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar
fakulteti O'zbek tili kafedrasida o'qituvchisi*

Ismoilova Sinora Otabek

*O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi
4-V guruh talabasi qizi*

Annotatsiya: *O'quvchilarga zamonaviy texnologiyalar asosida tilshunoslikka oid mavzularni tushuntirish va noodatiy metodlar orqali o'zbek tilini o'rganishga qiziqishini orttirish. O'zbek tili darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.*

Kalit so'zlar: *multimedia, multimediali ta'lim, multimediali ta'lim dasturlari, audio, grafik, taqdimot, animatsiya, matn, video.*

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayoniga joriy etilgandan so'ng multimedia vositalaridan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Xususan, Oliy ta'lim muassasalarida "Media savodxonlik" darslari fan sifatida kiritildi. Media ta'lim vositalari ta'lim muassasalari tomonidan keng qo'llanila boshlandi. Ushbu o'rganish usuli keng tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi va foydalanuvchilarga ularni an'anaviy o'qitish usullariga qaraganda kamroq vaqt ichida o'rganish imkonini beradi. Multimediali texnologiya bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga qodir: matn, grafika, animatsiya, o'yin texnologiyalari, taqdimot videotasvir va ovoz. Multimediane eng muhim xususiyati interfaollik-axborot muhitida ishlash jarayonida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirlik hisoblanadi.¹

Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-asrning boshlarida kirib keldi. Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turli xil izohlamodalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib multimediyaga shunday ta'rif berish mumkin: multimedia bu kompyuter texnologiyasining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchiga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir. Multimedia tushunchalari juda xilma-xil bo'lib, ko'pincha har qanday vaqtda mavjud bo'lgan texnologiyaga bog'liq. Multimedia so'ziga o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: multimedia-[ing. media, medium- o'rta, markaz, vositalar, tadbirlar] axborot uzatishning xilma-xil vositalari (matn, ovoz, jonlantirilgan va grafik tasvirlar) ni

¹ Ta'limda axborot texnologiyalari o'quv qo'llanma / R.X. Ayupov. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. – T.: TDPU, 2020 yil

qamrab oluvchi texnologiya va shunday texnologiyadan foydalanuvchi dasturlar va kompyuter vositalari. Dastlabki yillarda ta'riflar ikki yoki undan ortiq media vositalari haqida ma'lumotni o'z ichiga olgan bo'lsa, keyingi yillarda audio, musiqa, video, foydalanuvchi bilan o'zaro aloqa, foydalanish huquqi to'liq integratsiyalashgan birikmalar xususiyatlari bilan bir xil ma'noga egadir.

Multimediya vositalari va ta'limiy saytlardan foydalanar ekanmiz joyteka, wordwall, flippity, Learning.apps, liverworksheets, umaigra, Padlet, Plicker, educaplay, google glasroom kabi saytlardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu saytlar ko'plab o'yin texnologiyalari, tarqatma materiallari, taqdimotlar yaratish imkoniyatlarini beradi. Bu esa o'quvchilarni darsga qiziqishlarini uygotishga yordam berib kelmoqda.

AKT sohasidagi o'zgarishlar axborotni taqdim etish, qabul qilish almashish usullarini ham o'zgartirdi. Elektron o'quv materiallari vaqt va ishlash jihatdan ko'p afzalliklarga ega bo'lsada, ular qayta-qayta foydalanish, osonlik bilan almashish va ko'paytirish imkoniyatini ham taqdim etadi. Kompyuter va internet bilan o'zgargan va rivojlanishda davom etayotgan ta'lim muhitlarida qo'llaniladigan materiallar kompyuter bilan ta'lim muqarrar bo'lib qoldi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- Berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o'zlashtirish imkoni bor;
- Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- Ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga
- O'qituvchi sinfda bo'lishi shart emas;
- Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniga erishiladi.

Til o'qitishda multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutish kabi imkoniyatlarni beradi. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish(video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

Matn: Matn multimedyaning eng muhim qismlaridan biridir. Multimedia matnining dizayni va mazmuni gazeta va kitob matni kabi boshqa matn turlaridan farq qiladi. Grafika: Rasmlar, fotosuratlar, tasvirlar va boshqa san'at asarlari grafik deb ataladi. Kompyuter grafikasi kompyuter yordamida rasmlarni yaratish, tasvirlash,

manipulatsiya qilish va ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Grafika multimedyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir, chunki u orqali biz ma’lumotni rasm ko‘rinishida tasvirlashimiz mumkin. Grafikning 2 turi mavjud: chiziqli chizma va tasvir. O‘zbek tili darsliklarida albatta, matn bilan bevosita ishlashamiz. Shu matnlarni o‘quvchilar ko‘z oldiga yaxshi tasavvur qilishlari va xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishlari uchun bu multimediyali matnlar katta ahamiyatga ega. **Animatsiya:** Animatsiya multimedyaning eng dinamik shakllaridan biridir va o‘quvchilar diqqatini mavzuga jalb qilishda o‘qituvchiga yordam beradi. **Audio:** audio- bu nutq, musiqa va boshqa turdagi tovushlar. Ovoz elementi oddiy multimedia muhitini yaxshilash uchun ishlatiladi. Audio materiallarni o‘zbek tili mavzularida darsning barcha bosqichlarida bemalol qo‘llashimiz mumkin va bu darsimizning samaradorligini oshirishga erishtiradi. **Video:** Video yozuv bilan tasvirlar ketma-ketligini ko‘rsatadi.² O‘zbek tili darslarida yangi mavzuni yetkazib berish va mustahkamlashda mavzuga mos videotasmalar, videotopshiriqlardan foydalanilsa, o‘quvchilarni mavzuga jalb qilish va shu mavzuda tushunchalar ongida tasvirli saqlanib qolishiga zamin yaratadi.

Masalan, 6-sinf “O‘zbek tili” darsligida keltirilgan “Milliy taomlar” mavzusini o‘tishda yangi mavzu bayoni qismida multimediya texnologiyalaridan foydalansak juda mos tushishini ko‘rishimiz mumkin. Mavzuni ochib berishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ya’ni taqdimotda mavzu matnini aynan keltirmasdan mavzuga oida rasmlar: milliy taomlar va unga mos milliy kiyingan kishilar, milliy tarixiy joylar rasmlari joylashtiriladi, keyin matnni avdio shaklida o‘qilgan ovozi qo‘yiladi. Bunda o‘quvchilar matn, undagi ma’lumotlar bilan shunchaki tanishmasdan, bu ma’lumotlarni diqqat bilan tinglash, tinglab tushinish va eslab qolish kabi xususiyatlari rivojlanadi, hamda mavzuga o‘quvchilarni qiziqishini orttirishga erishiladi. Yangi mavzuda tinglab tushingan bilimlarini mustahkamlashda ham bu kabi elektron materiallardan foydalanish mumkin, albatta. Misol uchun, “Taomlar xaritasi” metodini qo‘llab, bunda O‘zbekiston Respublikasining xaritasini ekranga chiqaramiz va xaritadagi viloyatlarga o‘z o‘rniga mos taomlarni joylashtirish shartini qo‘yamiz. Bu topshiriqda ham animatsiya, ovoz, rasm kabi multimediya vositalarini o‘rinli ishlatgan holda o‘quvchilarning mavzuga diqqat, e’tiborlarini jalb qilish imkoniga ega bo‘lamiz va albatta, mavzularni tushintirishda nutqiy mavzu bilan grammatik mavzuni bog‘lagan holda yetkazib berish maqsadga muvofiq.

² Abdullaev, S. S. (2021, July). SOCIO-POLITICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL RELATIONSHIPS IN STUDENTS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (pp.168-170).

Multimedia texnologiyalar ta’lim rivojlanishining kafolati hisoblanadi. Multimedia texnologiyalari ta’lim jarayonini boyitadi, o‘quv materialini ta’limiy axborotlarni idrok etishni yanada samaralashtirish imkonini beradi. Multimedia – bu zamonaviy va dasturiy vositalardan foydalanib, interaktiv dasturiy ta’minot boshqaruvi ostida o‘zaro visual va audiosamara ta’siridan iborat. Gipermedia – bu multimediali obektlarda qo‘llaniladigan gipermatnli vositalar bilan bog‘liq kompyuter fayllaridir. Ta’limni kompyuter va boshqa internet-texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishda, turli afzalliklar bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklar ham mavjud: bu aloqa liniyalari bilan bog‘liq muammo bo‘lishi mumkin. Mazkur muammolarni CD-ROM va DVD diskari deb ataladigan optik kompakt disklar yordamida hal etish mumkin³.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, texnologiyaning rivojlanishi o‘quv ta’lim jarayoniga yangiliklarni olib keldi va multimediali o‘quv muhitini rivojlanishiga, jonlanishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunda har bir o‘qituvchi o‘z ish faoliyatida multimedia vositalaridan foydalanishga ehtiyoj sezadi. Multimedia vositalari o‘quv jarayonida ta’lim sifatini oshirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta’limda axborot texnologiyalari o‘quv qo‘llanma / R.X. Ayupov. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. – T.: TDPU, 2020 yil
2. Abdullaev, S. S. (2021, July). SOCIO-POLITICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL RELATIONSHIPS IN STUDENTS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (pp. 168-170).
3. Askarovich, M. S., Qizi, O. N. B., & Kizi, M. I. B. (2021). FORMATION OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS OF CHEMISTRY. *Вестник науки и образования*, (6-3 (109)), 28-31.
4. Atakhanovna, Y. G., & Azada, A. (2021, May). FEATURES OF THE USE OF MIXED EDUCATION IN UZBEK LANGUAGE CLASSES. In E-Conference Globe (pp. 77-80).
5. Ataxanovna, Y. G., Tajimuratovna, X. M., & Menglibayevna, B. S. (2023). ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KONIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *SCIENCE TIME JOURNAL*, 1(3), 42-49.
6. Tajimuratovna, X. M., Menglibayevna, B. S., Ataxanovna, Y. G., & Menlibayevna, S. A. (2023). QORAQALPOG ‘ISTON HUDUDIDAGI EKKLEZIONIMLARINING O ‘ZIGA XOS SEMANTIK XUSUSIYATLARI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 25-30.

³ Askarovich, M. S., Qizi, O. N. B., & Kizi, M. I. B. (2021). FORMATION OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS